



ILK BOLALIK DAVRIDA BOLALARNING EMOTSIONAL XUSUSIYATLARINING RIVOJLANISHI

Chorshanbiyeva Gulnoza Akrom qizi

Mirzo Ulug'bek Nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

amaliy psixologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Farhod Rahmatullayev

Annotatsiya: *Ilk bolalik davri 1,5-3 yosh bolalarning emotsional rivojlanish jarayonlari bu davrga xos emotsional holatlar va ularni shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar yoritilgan. Ota ona bilan emotsional aloqa sifati, tadqiqotlar asosida bu jarayonlarning psixik rivojlanishiga ta'siri ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Ilk bolalik davri, emotsional rivojlanish, emotsional regulyatsiya, emotsional aloqa psixologik xavfsizlik.*

Ilk bolalik davri 1,5-3 yosh hisoblanadi. Bu davr bolaning himoyasiz, kam harakat harakat holatidan juda jadal ravishda rivojlanadigan, quvnoq bolaga aylanish davridir. U qisqa vaqt ichida kattalar bilan munosabat o'rnatadi, predmetlarni ushlashga va ulardan foydalanishni o'rganadi. U atrof olamdagi narsalarni kuzatadi, predmetlarni qo'li bilan ushlab, ularning qandayligini bilishga intiladi, tovushlarga e'tibor beradi va predmetlar yordamida shu tovushlarni o'zi yaratishga harakat qiladi. O'z onasi va boshqa yaqinlari bilan emotsional munosabatga kirishadi.

Go'dak yoshidagi bola ham jismonan ham psixik ham ijtimoiy jihatdan juda tez rivojlanadi. Bola 2 oylik davridan boshlab, o'z onasining yuzini va ovozini boshqalardan ajrata boshlaydi. 2-3 oylikdan boshlab onasining tabassumi va kulgusiga tabassum va turli harakatlar bilan javob qaytaradi. 3-4 oyligidan boshlab bolalar yaqinlariga harakatlari bilan ko'rish, eshitish yoki gapirishni xohlayotganini bildiradi. 8 oylikdan boshlab bola o'zgacha muhit va begonalar qo'liga tushsa xavotirini yig'isi orqali namoyon qiladi. Bu xavotir 14-18 oyligida asta sekinlik bilan kamayib boradi.

Ilk bolalik davrida shaxsning rivojlanishi.. Bu davrda bolalar o'z xatti-harakatlarini o'ylab o'tirmaydilar chunki xatti-harakatlar ularning hissiyotlari asosida shakllanadi. Bu yoshdagi bolalarning xatti-harakatlari juda o'zgaruvchan bo'ladi. Masalan bolaning yig'lashi hamda yig'idan to'xtashi juda tez o'zgaradi. Ilk bolalik davrida bolada yaqinlariga va tarbiyachisiga nisbatan muhabbat shakllanadi. Endi bola o'z yaqinlaridan maqto'v olishga harakat qiladi. O'z ota onasiga nihoyatda qattiq bog'langan bo'lib, intizomli va itoatkor bo'ladi. Ana shu bog'liqlik sababli bolaning asosiy ehtiyojlari qondiriladi, xavotirligi kamayadi. Onasi yonida bo'lgan bolalar ko'proq harakat qila boshlaydi, atrof muhitni o'rganishni boshlaydi. Bu davrda bola o'z ismini juda yaxshi o'zlashtiradi. Bola doim o'z ismini ximoya qiladi, uni boshqa ism bilan chaqirishlariga norozilik bildiradi. Kattalarning



bola bilan qiladigan munosabati uning o'zini alohida shaxs sifatida anglashini boshlanishga imkoniyat beradi.

Emotsional rivojlanish inson psixik taraqqiyotining ajralmas qismi bo'lib, u bolaning o'z his tuyg'ularini idrok etishi, ifodalashi, boshqarishi hamda boshqalarning emotsiyalarini anglab, ularga mos ravishda munosabat bildirish qobiliyatini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Ilk bolalik davri emotsional rivojlanishning eng muhim poydevori hisoblanadi. Bu bosqichda bola nafaqat o'z his tuyg'ularini anglay boshlaydi, balki ularni ifodalash va boshqarish ko'nikmalarini ham o'zlashtiradi. Yaqin insonlari bolaga bu davrda mehr e'tibor va ijobiy emotsional yaratishlari lozim.

Emotsiya bu insonning ichki holatiga tashqi muhitdagi hodisalarga nisbatan munosabatini aks ettiruvchi psixik holatdir.

Emotsional regulyatsiya bu bolaning o'z emotsiyalarini tan olish, ifoda etish, boshqarish, g'azabni bosishdir.

Emotsional aloqa bu bola bilan unga g'amxo'rlik qilayotgan shaxs ya'ni onasi yoki tarbiyachisi o'rtasida yuzaga keladigan mehrga asoslangan, hissiy yaqinlik munosabatidir. Bunday aloqa bolaning o'zini xavfsiz his qilishi, stressga chidamlilikni shakllantirishi va kelajakda ijtimoiy emotsional moslashuvchanligi uchun zamin yaratadi.

Psixologik xavfsizlik bu shaxslar o'zlarini xavfsiz his qilishlari va xatolar qilishdan, savollar berishdan, yangi g'oyalar taklif qilishdan yoki o'z fikrlarini bildirishdan xavotirlanmasliklari mumkin bo'lgan muhit. Bu jamoada yoki tashkilotda hurmat va ishonch muhitini yaratishni anglatadi, bunda odamlar o'zlarini xavfsiz his qilishadi va o'zlarining shaxsiy rivojlanishlari uchun to'liq imkoniyatlar namoyon etishi mumkin.

Xulosa

Ilk bolalik davri emotsional hayot poydevori qo'yiladigan eng nozik va muhim bosqichdir. Bola bu davrda his tuyg'ularini anglash ifoda etish va boshqarishni o'rganadi. Mehr e'tibor ishonchga boy muhit esa emotsional yetuklikning asosiy garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Janpeysova, Ibragimova. Bola va o'smir psixologiyasi. Toshkent 2020
2. Davlatov. Bola psixologiyasi. Toshkent 2016
3. Elkonin Psixologiya razvitiya rebenka.
4. arxiv.uz/uz/ document.

